

## **AQSHNING MARKAZIY OSIYODA RAQAMLI DIPLOMATIYA OLIB BORISHDAGI ASOSIY MUAMMOLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8360937>

**Izzatullayev Bobirjon Izzatullayevich**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchi*

### **Annotatsiya**

Bugungi kunda AQSH Markaziy Osiyoda o‘z raqamli diplomatiyasini olib borishda keng imkoniyatlarga, jumladan, rivojlangan axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mintaqada qulay muhitga ega bo‘lsada, raqamli diplomatiyani amalga oshirishda ba’zi siyosiy, madaniy va gumanitar muammolari mavjud.

### **Kalit so‘zlar**

Raqamli diplomatiya, AQSH, Markaziy Osiyo, zamonaviy axborot-kommunikatsiya, texnologiyalar, tashqi siyosat, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro munosabatlar.

AQSHning Markaziy Osiyo mintaqasiga qaratilgan tashqi siyosatida raqamli diplomatiyani olib borishdagi ba’zi muammolar borki, ular AQSHga ko‘zlangan tashqi siyosatni olib borishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Markaziy Osiyo aholisining asosiy qismi xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy yangiliklardan asosan Rossiya OAV orqali xabardor bo‘ladi. Bunga sabab mintaqa davlatlaridagi mahalliy OAV xalqaro yangiliklarni tezkorlik bilan yoritish darajasida emasligi, mintaqa aholisining asosiy qismi rus tilini tushuna olishi va maxsus qurilmalari orqali rus kanallarini ko‘rish imkoniyati osonligidir.

Hozirgi kunda Markazi Osiyoda Rossiyaning 70 dan ortiq tv kanallari kuzatib boradi. Aholi orasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarga ko‘ra Qozog‘iston aholisi “Первый канал Евразия” eng mashxur kanal sifatida qayd etilgan. Shuningdek, ushbu kanal yangiliklar eshittirishlarida ham birinchi o‘rinda qayd etilgan. So‘rovlarga ko‘ra Rossiyaning “Россия-1”, “Россия-24”, “HTB”, “Рен ТВ”, “СТС” ва “ТНТ” kanallarini asosan shaxar aholisi kuzatishi ma’lum bo‘lgan.<sup>45</sup>

Mintaqa davlatlari ichida ayniqsa Qozog‘istonda rus tv kanallarining ta’siri kuchli hisoblanadi. Bu boradi sobiq bosh vazir K. Masimov 55% Qozog‘iston aholisi rossiya axborot makonida yashaydi deb aytib o‘tgan edi.<sup>46</sup>

<sup>45</sup> Популярность российского ТВ в Казахстане и Кыргызстане. // <https://ia-centr.ru/experts/sergey-masaulov/populyarnost-rossiyskogo-tv-v-kazakhstane-i-kyrgyzstane/>

<sup>46</sup> “Какова популярность российского ТВ в Казахстане”// <https://timeskz.kz/44463-kakova-populyarnost-rossiyskogo-tv-v-kazahstane.html>

Qirg‘izistonda o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, eng mashhur kanallar ichida Rossiyaning “Первый канал” va milliy “КТРК” kanallari 89% ovoz olgan. Keyingi o‘rinda “Россия-1” 70% ovoz olgan va ko‘ngil ochar kanallar ichida ham rus kanallari “СТС” va “ТНТ” yetakchi. Qirg‘iziston aholi orasida tv tomoshasidagi rus kanallarining hissasida “Первый канал” - 27,8%; “Россия-1” - 18,7%, “Россия-24” - 11% ga to‘g‘ri keladi. Eng mashxur mahalliy kanal “КТРК” ning ulushi esa 24%. Yangilik dasturlari va siyosiy bahslar bo‘yicha tv dasturlarni aholi asosan “Первый канал” yoki bosh rus kanallari orqali tomosha qiladi. Jumladan, ular orasida “Пусть говорят” va “Прямой эфир” dasturlari mashhur. Qirg‘iziston kanallari ko‘pgina teleshou, dastur va yangiliklarni rus kanallaridan olib namoyish etadi.<sup>47</sup>

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tv kanllarning salmog‘i yildan yilga oshib bormoqda. Ular ichida ayniqsa xususiy kanallari tezlik bilan rivojlanmoqda. International Media Service kompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra eng ko‘p tomosha qilinadigan kanallari ichida birinchi o‘rinda Sevimli TV (3,38%), ikkinchi o‘rinda Zo‘r TV (2,78%), uchinchi o‘rinda Mening Yurtim (1,3%) qayd etilgan. Rossiya kanallari ichida HTB (0,35%) va “Первый канал” (0,32%) ulushi yuqori.<sup>48</sup>

Tojikistondagi mahalliy kanallar tojik va rus tillarida o‘z dasturlarini olib boradi. Bundan tashqari sun’iy yo‘ldosh antennasiga ega aholi Rossiya kanallarini tomosha qilishadi. Turkmaniston ham aholi orasida rus kanallari “Россия 24”, “Звезда”, “СТС”, “Домашний”, “ТВ-3”, “Рен-ТВ”, “Культура”, “Карусель” va “ТНТ” ko‘p tomosha qilinadi.

Markaziy Osiyo aholi orasida Rossiya tv kanallarining ko‘p tomosha qilinishiga asosiy sabablardan biri mintaqada rus tilini ma’lum darajada tushuna olishlik bilan bog‘liq. Bu ko‘rsatgich ayniqsa Qozog‘iston va Qirg‘izistonda yuqori. Jumladan, ma’lumotlarga qaraganda Qozog‘istonda 84%, Qirg‘izistonda 49%, O‘zbekiston 41%, Tojikistonda 33% va Turkmanistonda 18% aholi rus tilida muloqot qila oladi. Mintaqaga umumiyligi bo‘lgan holat asosan poytaxt va yirik shaharlar aholisi orasida rus tili ayniqsa rivojlangan.<sup>49</sup>

Rus tilida ta’lim olishda (800 ming) Qozog‘iston mintaqada birinchi o‘rinda turadi. Qirg‘izistonda esa umumiyligi maktab o‘quvchilarining 20% ta’limni rus tilida

<sup>47</sup> Популярность российского ТВ в Казахстане и Кыргызстане. // <https://ia-centr.ru/experts/sergey-masaulov/populyarnost-rossiyskogo-tv-v-kazakhstane-i-kyrgyzstane/>

<sup>48</sup> Что происходит на телерекламном рынке Узбекистана: цены и рейтинги. // <https://www.spot.uz/ru/2019/08/28/tv/>

<sup>49</sup> “Русский язык в Центральной Азии: количество должно переходит в качество” // <https://ia-centr.ru/experts/keremet-dzhapparbekova/russkiy-yazyk-v-tsentralnoy-azii-kolichestvo-dolzhno-perekhodit-v-kachestvo/>

oladi. Gazeta va jurnallarning rus tilidagi tiraji qirg‘iz tilidan ko‘p. O‘zbekistonda ayniqsa shahar hududlarida ota onalar bolalarini rus maktablariga berishni afzal bilishadi. Turkmanistonda rus tiliga e’tibor qolgan respublikalarga nisbatan ancha past darajada. Bosma ommaviy axborot vositalari ichida yagona rus tilidagi gazeta “Neytralnyiy Turkmenistan” hisoblanadi.<sup>50</sup>

Markaziy Osiyoda AQSH raqamli diplomatiyasiga to‘sinq bo‘luvchi yana bir omillardan biri mintaqada ma’lum darajada mavjud bo‘lgan anti amerika kayfiyati bilan bog‘liq. Bunga asosiy sabablardan biri AQSH tomonidan aholisi asosiy qismi musulmon bo‘lgan davlatlar harbiy harakatlar olib borilganligi, jumladan, 2001-yilda Afg‘onistonda, 2003-yilda Iroqda, shuningdek, Arab bahorida AQSH ta’siri bog‘liq jarayonlar. Bundan tashqari antiamerika kayfiyati bor insonlarning asosiy qismi AQSHni demokratiya niqobi ostida davlatlarda fuqarolar urushi, qo‘zg‘olonlar va ijtimoiy notinchlik keltirib chiqarishda ayblaydi. Bu o‘z navbatida AQSH ommaviy axborot vositalariga jiddiy ta’sir qiladi. Shu sababli mashhur ijtimoiy tarmoqlar Facebook, Twitter, Youtube va internet saytlar anti amerika kayfiyatidagi aholiga ijtimoiy norozilik vositasi sifatida ko‘rinadi.

Ko‘plab soha ekspertlar AQSH imiji bilan bog‘liq muammolari borligini ta’kidlab keladi. Davlat Departamenti tomonidan chiqarilgan hisobotlarda(misol uchun, ijtimoiy diplomatiya bo‘yicha maslahat Kengashining 2008-yil hisobotida) imijni ijtimoiy diplomatiya va xorijiy auditoriyaga ta’sir eta oluvchi kommunikativ mahoratiga ega elchilarni tayinlash orqali yaxshilash kerak ekanligini ta’kidlaydi.<sup>51</sup>

Anti-Amerika kayfiyati bilan bir qatorda hukumatga bo‘lgan ishonching pastligi AQSH olib borayotgan siyosatga xalqaro maydonda ta’sir qiluvchi jiddiy omillardan biri sifatida baholanadi. AQSHda Kiber xavfsizlik va milliy xavfsizlik agentligi bo‘yicha yuqori lavozimlardan ishlagan Emili Goldmanning fikricha AQSH Sovuq Urush davrida davlatlarni Sovet Ittifoqidan himoya qilish va o‘zini ozodlik tarafdori sifatida ko‘plab xalqlarda katta ishonchga sazovor bo‘lgan edi. Ammo, keyinchalik Sovuq Urush yakunlangandan so‘ng, AQSHning Yaqin Sharq olib borgan siyosati tufayli, AQSHning har bir harakati uni bosqinchi baholanishi oshishiga sabab bo‘ldi.<sup>52</sup>

AQSH dunyo axborot makonidan yagona kuch emas. Doimiy ravishda AQSHga dushman kuchlarining turli vositalar orqali dunyo axborot makonida qarshilik ko‘rsatib keladi. Bunga misol sifatida, terroristik guruhlarning axborot

<sup>50</sup> “Положение русского языка в странах Центральной Азии” // <https://cabar.asia/ru/>

<sup>51</sup> Edward Schatz, Renan Levine: “Framing, Public Diplomacy, and Anti-Americanism in Central Asia.” International Studies Quarterly, Volume 54, Issue 3, September 2010, Pages 855–869, <https://academic.oup.com/isq/article>

<sup>52</sup> Christopher Paul. Strategic communication: origins, concepts, and current debates. –Santa Barbara, California, 2011, p. 111-112

kommunikatsiya vositalarining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda AQSHning raqamli diplomatiyasiga ta'sir ko'rsatishini keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda ushbu guruhlarning quyidagi ko'rinishdagi usullardan foydalanayotganini ko'rishimiz mumkin: qo'rqtish va tinch aholini majburlash orqali, jurnalistlarga tahdid va ular faoliyatiga to'sqinlik qilish, filmlar va turli video tasvirlar chiqarish, maxsus ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish, yolg'on axborot tarqatish, o'zlariga xayrihoh odamlar yo'llash uchun ularga turli yordamlar ko'rsatish, yoshlarni va boshlang'ich ta'limni qo'llab-quvvatlash, o'z maqsadlari yo'lida din, madaniyat va an'analardan foydalanish ( ya'ni boshqa din va madaniyatni dushman qilib ko'rsatish), Internet, alohida televediniyaga egalik qilish (Livandagi Hezbolloh guruhi ancha vaqtdan buyon o'zining televediniyasiga ega)<sup>53</sup>, turli diniy media platformalar orqali da'vat etish, mish-mish va ig've tarqatish.<sup>54</sup>

Bugungi kunda dunyo raqamli axborot makonidagi quyidagi o'zgarishlar AQSH raqamli diplomatiyasiga ta'sir etayotgan omillardan biri bo'lib qolmoqda:

Noxolislik. Dunyodagi ba'zi mintaqasi va davlat tomonidan ommaviy axborot vositalari va Internetning nazorat qilinishi bois, ko'pincha xolis ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.<sup>55</sup>

Muxbirlarning juda kamligi. Moliyaviy sabablarga ko'ra ko'plab axborot agentliklari kam muxbirlarni yo'llashga majbur. Voqeа joyida muxbirlarning yetishmasligi va ishonchli guvohlarning topilmasligi dushman tomoniga qo'l kelishi hamda yolg'on yangiliklarni tarqatishiga imkon beradi.

Jurnalistlar uchun ma'lumotlar olishdagi qiyinchilik. Jurnalistlarning xavfsizligi real mavjud muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Iraq va Afg'onistonidagi isyonchilar jurnalistlarni sodir bo'layotgan voqeа bo'yicha yangiliklar olishni cheklaydi.

AQSH Davlat Departamenti siyosat muvofiqlashtiruv bo'limi, kiber va yangi texnologiyalar ustida faoliyat yurituvchi hodimi Emili Goldman AQSHning global axborot makonida duch kelayotgan quyidagi 5 ta muammoga to'xtalib o'tgan:<sup>56</sup>

Birinchidan, AQSH dunyodagi eng qudratli davlat bo'lish bilan birgalikda, unda manfaatlar turli xildir. Bu juda ko'plab manfaatdor tomonlarni yaratadi. Ular iqtisodiy maqsadlardan boshlanib, terrorizmga qarshi kurashish masalasi bilan

<sup>53</sup> Losman, "Hate's Inevitable Harvest," Modern Thought, February 2006.

<sup>54</sup> Christopher Paul. Strategic communication: origins, concepts, and current debates. –Santa Barbara, California, 2011, p. 115

<sup>55</sup> Christopher Paul and James J. Kim, *Reporters on the Battlefield*, Santa Monica, Calif.: RAND, MG-200-RC, 2004.

<sup>56</sup> Goldman E. Strategic Communication: A Tool for Asymmetric Warfare // Small Wars Journal. October 6, 2007. [https://smallwarsjournal.com/blog стратегическое общество инструмент для асимметрической войны](https://smallwarsjournal.com/blog стратегическое-общение-инструмент-для-асимметрической-войны)

tugaydi. AQSHning bugungi barcha kuchsiz raqiblari esa o‘z faoliyatlarini kam miqdordagi auditoriya va maqsadlarga qaratadi.

Ikkinchidan, AQSHda ochiq va shaffof siyosiy tizimdir. Demokratik bahslardagi ko‘plab tanqidiy fikrlar AQSHning dushman tomonlariga qo‘l keladi. Misol uchun, biror davlatga sanksiya kiritish borasida Kongressdagi bahslar va agar u amalga oshmay qolsa ham davlat imidjiga zarar keltiradi. Misol uchun, Pokiston bilan bog‘liq shunday holat yuzaga kelgan edi. Bundan tashqari Iroqni 3 qismga bo‘lish borasidagi AQSH senatorining fikri, AQSH Iroq va Yaqin Sharq chegaralari o‘zgartirib yubormoqchi deya talqin etilgan edi. Keyinchalik ushu fikr bosma nashrda chiqqandan so‘ng, Yaqin Sharq chegaralarini AQSH o‘zgartirishi mumkinligi borasidagi taxminni yanada kuchaytirgan edi.

Uchinchidan, samarali raqamli diplomatiyani olib borish boshqa tillarni va madaniyatlarni tushunishni talab qiladi. Sovuq urush davrida AQSH uchun yuqoridagi ko‘nikmalarni egallash ancha vaqtini talab qilgan edi. Endilikda Davlat Departamenti, Mudofaa vazirligi va Ta’lim vazirligi tashabbusi bilan lingvistik va madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ularning fikricha global terrorizmga qarshi kurashda boshqa tillar, ayniqsa arab tili muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, AQSH hukumat tizimi ko‘plab byurokratik strukturalardan iborat. Biror voqeaga munosabat bildirish faoliyatini muvofiqlashtirishda tezkorlik yetishmaydi.

Beshinchidan, hukumatning o‘z xatti-harakatlari huquqiy chegaralangan holda amalga oshiradi. Bunday holat AQSHning raqiblarida chegaralanmagan. AQSH Mudofaa vazirligining biror faoliyati konflikt bo‘yicha yoki iqtisodiy qaror bilan ham to‘xtatilib qo‘yilishi mumkin.

AQSH Sovuq Urush davrida Sharqiy Yevropani Sovet Ittifoqi zulmidan ozod qilgan xaloskor sifatida ishonchga sazovor bo‘lgan edi. Endilikda, AQSHning dunyoning turli mintaqalari, ayniqsa Yaqin Sharqdagi faoliyati bosqinchilik sifatida baholanib, AQSHning raqiblariga qo‘l kelmoqda. Shuningdek, AQSH raqamli diplomatiyasini bugungi ta’sir samarasini monitoring qilib borishdagi muammolar mavjud. Misol uchun tashqi siyosatda erishilgan yutuqlarda raqamli diplomatiyaning ahamiyati va o‘rni degan savolni topish mushkul.<sup>57</sup>

<sup>57</sup> Dennis M. Murphy, *Fighting Back: New Media and Military Operations*, Carlisle Barracks, Pa.: Center for Strategic Leadership, United States Army War College, November 2008, p. 8.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Christopher Paul. Strategic communication: origins, concepts, and current debates. -Santa Barbara, California, 2011, p. 115
2. Christopher Paul and James J. Kim, *Reporters on the Battlefield*, Santa Monica, Calif.: RAND, MG-200-RC, 2004.
3. Dennis M. Murphy, *Fighting Back: New Media and Military Operations*, Carlisle Barracks, Pa.: Center for Strategic Leadership, United States Army War College, November 2008, p. 8.
4. Edward Schatz, Renan Levine: "Framing, Public Diplomacy, and Anti-Americanism in Central Asia." International Studies Quarterly, Volume 54, Issue 3, September 2010, Pages 855–869, <https://academic.oup.com/isq/article>
5. Goldman E. Strategic Communication: A Tool for Asymmetric Warfare // Small Wars Journal. October 6, 2007. <https://smallwarsjournal.com/blog/strategic-communication-a-tool-for-asymmetric-warfare>
6. "Какова популярность российского ТВ в Казахстане" // <https://timeskz.kz/44463-kakova-populyarnost-rossiyskogo-tv-v-kazahstane.html>
7. Популярность российского ТВ в Казахстане и Кыргызстане. // <https://ia-centr.ru/experts/sergey-masalov/populyarnost-rossiyskogo-tv-v-kazakhstane-i-kyrgyzstane/>
8. Положение русского языка в странах Центральной Азии. <https://cabar.asia/ru/>
9. "Русский язык в Центральной Азии: количество должно переходит в качество" // <https://ia-centr.ru/experts/keremet-dzhapparbekova/russkiy-yazyk-v-tsentralnoy-azii-kolichestvo-dolzhno-perekhodit-v-kachestvo/>
10. Что происходит на телерекламном рынке Узбекистана: цены и рейтинги. // <https://www.spot.uz/ru/2019/08/28/tv/>